

**SHARQ MUTAFAKKIRLARNING TILSHUNOSLIKKA OID
QARASHLAR:ABU ALI IBN SINO VA MAHMUD ZAMAXSHARIY**

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi
va tarjimashunoslik fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
101-guruh talabasi
O 'rinboyeva Gulnoza Nizomjon qizi
Ilmiy maslahatchi: **Zaynobiddinova I.M.***

Annotatsiya: Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino va Mahmud Zamaxshariy ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shgan allomalardir. Ibn Sino tibbiyot, falsafa va mantiq sohalarida yuksak ilmiy meros qoldirgan. Mahmud Zamaxshariy esa arab tili, adabiyot va Qur'on tafsirining nufuzli namoyandalaridan biridir. Ularning asarlari bugungi kunda ham sharq ma'naviyati va ta'limi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Tibbiyot, falsafa, arab tili, tafsir, Al-Kashshof.*

Annotation: Eastern thinkers Abu Ali Ibn Sina and Mahmud Zamakhshari made significant contributions to the development of science. Ibn Sina left a rich scientific heritage in the fields of medicine, philosophy, and logic. Mahmud Zamakhshari is one of the most influential scholars of Arabic language, literature, and Qur'an exegesis. Their works continue to serve as important sources for Eastern spirituality and education today.

Keywords: *Medicine, philosophy, Arabic language, tafsir, Al-Kashshof.*

Аннотация: Восточные мыслители Абу Али Ибн Сино и Махмуд Замахшари сделали значительный вклад в развитие науки и культуры. Ибн Сино прославился работами по медицине, философии и логике, которые стали основой многих научных направлений. Махмуд Замахшари известен как крупнейший учёный по арабскому языку и тафсиру, а его труды до сих пор являются важным источником для учёных.

Ключевые слова: *Медицина, философия, арабский язык, тафсир, Ал-Кашшоф.*

Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino va Mahmud Zamaxshariy merosi ko'plab jahon olimlari tomonidan chuqur tadqiq qilingan bo'lib, ular orasida Jorj Sarton, Bertran Rasel, Edvard Braun kabi ilmiy arboblari alohida o'rin tutadi. Ibn Sino va Zamaxshariy asarlarini o'rganishda o'zbek olimlaridan Abu Rayhon Beruniy nomidagi institut tadqiqotchilari, Sh. Yusupov, A. Qayumov va N. Komilovning izlanishlari

muhim ahamiyatga ega. Ushbu allomalar ilmiy merosi Sharq va G'arb ilm-fani o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilmiy qarashlarini tahlil qilish bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Ibn Sinoning til haqidagi ta'limoti

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) O'rta asr sharqining buyuk mutafakkiri, qomusiy olimidir. Ibn Sinoning til haqidagi qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka xushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi. U yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok eta olinishi kerakligini ham asoslab beradi.

Ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Kitob an-Najot", "Donishnoma", "Kitob ishorat va tanbihot", "Asbobi hudud al-huruf" asarlarida tilshunoslikka doir fikrlari bayon etilgan. Ibn Sinoning til haqidagi ta'limoti mantiqiy nuqtayi nazar- ga asoslanadi. Uningcha, fikr belgisi haqidagi ta'limot til haqidagi ta'limotdir . U tilni tabiiy va sun'iy tillarga bo'ladi. Tabiiy til tafakkur belgisi sifatida Ibn Sino tomonidan har tomonlama o'rganilgan. Ibn Sino ta'kidlashicha, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasida doimiy aloqa mavjud.¹

Ibn Sino o'zining "Shifo kitobi"da inson fikri so'zlarda, ya'ni tilda o'z ifodasini topadi, degan fikrni bayon etadi. Biror narsa haqida bilim hosil qiluvchi tushuncha tasdiqlovchi, boshqa predmet vositasida hosil qilingan bilim aniqlan- gan sanaladi, deydi Ibn Sino. Ushbu bilimlar belgilar vositasida qabul qilinadi.

Ibn Sino fikricha, belgilar uch xil bo'ladi: aqliy, tabiiy va aloqadorlik. Aqliy belgi sabab va natijaning aloqadorligini ko'rsatadi. Masalan, biz tutunni ko'rishimiz bilan olovning mavjudligini ko'z oldimizga keltiramiz. Tabiiy belgi tabiiy fiziologik yoki qalb holotin i ifodalaydi. Masalan, yuzning oqarishi-qo'rqish yoki kamquvvatlik, yuzning qizarishi, isitma ko'tarilishi yoki uyatchanlikni ifodalaydi. Aloqadorlik belgisida biror predmetning belgisi boshqa predmetning belgisi sifatida qabul qilinadi. Masalan, qora kiyim motam belgisini bildiradi. Aql har uchala belgini anglab olishda ishtirok etadi. So'z belgi sifatida biron bir ma'noni ifodalaydi. Shunga ko'ra ma'noni farqlashning uch turi mavjud: rozilik belgi, mazmun belgi va zaruriyat belgisi.²

Rozilik belgi so'z-belgi hisoblanadiki, qanday kelishgan bo'lsa, shuni ifodalaydi. Masalan, uy so'zi keltirilganda, uning xonalari, eshigi, derazasi, tomi ko'z oldimizga keladi. Mazmun belgi ham so'z-belgi bo'lib, u ma'noning qismini ifodalaydi. Masalan, biror kishi uyining devori qulagan bo'lsa, uyim quladi deyish

¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.

² . Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

bilan uning devori nazarda tutiladi. Soʻz bilan aloqador boʻlib, soʻz belgi ifodalagan tushunchadan tashqi belgi sanalib, u zaruriyat belgidir. Masalan, biz har doim “shift” haqida gapirganimizda “devor” soʻzi koʻz oldimizga keladi.

Mahmud Zamaxshariy – arablar va gʻayri arablar ustodi Ilm-u fan xazinasiga bebaho durdonalar qoʻshgan Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075-1144) Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlogʻida dunyoga keldi va voyaga yetdi. Zamaxshariyning fan olamidagi ulkan xizmatini hisobga olib, unga Sharq olimlari tomonidan “Ustoz-ul-arab val-ajam” (arab va gʻayri arablar ustози), “Faxr-i Xorazm”, “Jorulloh” kabi unvonlar berilgan. U arab tilida nazm va nasrda yozilgan badiiyy asarlardan tashqari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, tarix kabi fanlarga oid ellikdan ortiq asar yozgan. M. Zamaxshariy arab tilshunosligi anʼanalarini davom ettirgan yetuk tilshunoslardandir. U arab leksikografiyasining mavzuvii tamoyilidan mohirlik bilan foydalanib, mavzuvii guruh ichida soʻzlarni alfavit tartibida joylashtirishni joriy qildi.

Zamaxshariy yirik tilshunos sifatida arab tilshunosligi-ning rivojiga katta hissa qoʻshdi. U oʻzining “Asos-ul-baloga” (“Chechanlik poydevori”) deb atalgan lugʻati bilan arab lugʻatchiligini bir necha pogʻona yuqori koʻtardi. U 39gʻatida soʻzlarning birinchi harfini va undan keyingi harflarini nazarga olgan holda alifbo tartibida berdi. Bu usul sal oʻzgargan shaklda hozirgi zamon leksikografiyasida ham qoʻllanilmoqda. Soʻzlarni izohlashda ham Zamaxshariyning yutugʻi katta. U soʻzlarning asl maʼnolarini berib, shu maʼno ni tasdiqlovchi misollar keltiriladi. Olim soʻzning qaysi ibora da qanday maʼnoda qoʻllanilishiga eʼtibor beradi, soʻz koʻchma maʼnolarining paydo boʻlish sabablarini koʻrsatib oʻtadi.³

Zamaxshariyning “Al-foiq fi gʻarib-il-hadis” (“Hadisdagi notanish soʻzlarni oʻzlashtiruvchi”) asari ham lugʻat boʻlib, hadis va adabiy asarlarda uchraydigan, maʼnosini anglash qiyin boʻlgan soʻzlarni izohlashga bagʻishlangan. Bunda ham soʻzlar alifbo tartibida Berilib, uning maʼnosi izohlanadi va maʼnoni ochuvchi sheʼriy yoki nasriy misollar keltiriladi. Zamaxshariy “Al-jibol va-l-amkina va -miyoh” (“Togʻ, manzil va suvlar”) degan ajoyib toponimik asar ham yaratgan. Bu kitobda geografik atamalar alifbo tartibida berilib, avval shu atama qaysi yer, togʻ yoki suvning nomi ekanligi aytiladi, soʻng ra shu nomning qoʻyilishi sababi va u bilan bogʻliq rivojlanish va sheʼrlar keltiriladi. Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul adab” (“Nafis soʻzlarga muqqaddima”) asarida arab tili leksikasi va grammatikasiga oid fikrlari oʻz ifodasini topgan. Lekin bu asar arab tili tarixini oʻrganishdagina emas, balki turkiy, forsiy, moʻgʻul xalqlari tillari tarixini oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Muqaddimat-ul adab” asari besh qismdan iborat boʻlib, birinchisida ism turkumiga kiruvchi soʻzlar, ikkinchisidan feʼllar, uchinchisida koʻmakchilar, toʻrtinchisidan ismlarning turlanishi, beshinchisida feʼl tuslanishi berilgan. Arabcha soʻzlarning ostida

³ Oʻrinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.

forscha, ba'zilarida turkiy, hatto mo'g'ulcha tarjimalari ham berilgan. Bu asar xorazmiy tiliga ham tarjima qilingan.

Xullas, M. Zamaxshariy lug'atining turkiycha qismida XII-XIII asrlar Markaziy Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi o'z aksini topgan. Zamaxshariy arab maqollarini yig'ib o'rganish borasida ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, "Al-mustasqo fi amsol-al-arab" (Arab maqollarini nihoyasiga yetkazuvchi") asarida uch yarim mingga yaqin arab maqola alifbo tartibida berilgan.⁴

Abu Ali Ibn Sino va Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi Sharq uyg'onish davrining eng yuksak yutuqlarini aks ettiradi. Ular haqidagi tadqiqotlar jahon va o'zbek olimlari tomonidan doimiy davom etayotgani bu allomalarning ilm-fan taraqqiyotidagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Ularning asarlarini chuqur o'rganish bugungi ilmiy hamjamiyat uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.
2. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
3. О'rinboyev В., Musayev А. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.

⁴ Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.